


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


1/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 1, yanvar

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Akhmedova M.B., Aliyeva G.H.	Gender asymmetry in language: cultural and linguistic reflections in uzbek, russian, and english	4
Ahmadova U.Sh.	Perifrazalar olamni idrok etish usuli sifatida	7
Jabborova Z.M.	Zamonaviy publisistik janrlarda mediadiskurs tushunchasi	13
Maqsudova M.U.	The main role of stress in compound words in english and uzbek	16
Mavlonova U.Kh.	Linguopragmatic conditioning of the politeness category in the works of ulugbek hamdam and zadie smith	20
Narzullayeva F.O., Tuymuradova R.R.	Somatic phraseological units in english and uzbek proverbs	25
Radjabova D.A.	Mineralogical terms in english and uzbek languages: their etymology and stylistic functions	29
Maxmudova K.S.	The role of pragmatics in facilitating the understanding of literary texts	35
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation of religious prayers in english and uzbek languages and their corpus analysis	40
Axmedova G.A.	Main features of pragmatics in language and linguistics	50
Mirzatillayeva Z.R., Aliyeva N.X.	Kognitiv tilshunoslik va uning fanlararo bilim tizimida rivojlanishi	54
Sharapadinova D.S., Eshtuhtarova B.B.	Linguocultural features of phraseological units expressing emotions	59
Anvarova Sh.V.	Lexical - thematic field of ornithonyms in the languages	63
Baxtiyorova M.B.	Atoqli otlarning lingvomadaniy tahlili va ularning funksional xususiyatlari	68
Maxmudova K.S.	The role of pragmatics in facilitating the understanding of literary texts	72
Nuritdinova N.N.	Fransuzcha burun tovushli soʻzlarning oʻzbekcha imlosi	77

Qutbiddinova N.D.	Somatic phraseologisms in english and uzbek languages	82
Sheraliyeva Sh.I.	Ingliz, fransuz va o‘zbek tillarida avtomobil terminlarining qiyosiy tahlili	86
Vaxidova F.S., Urunova I.N.	Hunarmandchilikka oid terminlarning leksik tizimda tutgan o‘rni	91
Yo‘ldosheva M.B.	Psixolingvistikaning obyekti, predmeti va ta’riflari	95
Ахмедова Ф.И.	Лингвистическая идентификация через неологизмы: как язык помогает создавать новую социальную идентичность	100
Кодирова Ф.Ю.	Основные вопросы субстантивных словосочетаний	105
Abduraxmonov X.A.	Ingliz tilidagi mavhum otlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda uslubiy muammolar	109
Barotova S.U.	The use of proverbs for increasing speech effectiveness in english	113
Narzullayeva F.O., Xikmatova M.U.	Pragmatic features of somatic expressions in english and uzbek languages	118
Norova M.F.	Eskirgan so‘z va iboralar	124
Olimova Sh.S., Davlatova M.H.	Developing the ability to use modal units in speech activity	128
Akramov I.I.	The linguistic representation of worldviews in western and eastern (turkic) aphorisms	132
Saidov X.Sh., Najmiyev M.M.	Nutqiy tejamkorlikning tilshunoslikdagi o'rni	136
Vaxidova F.S., Faxriyeva D.O.	Ziyorat turizmi lingvistik birliklarning pragmatik funksiyalari	140
Ollomurodov A.O.	Kinodiskurs qayta kodlash vositasi sifatida	144
Qobilova N.S.	Tejamkorlik tamoyilining til sathlarida o‘rganilishi	148
Saidova M.U.	Exploring lexical and grammatical cohesion in O.Henry’s ‘Two thanksgiving day gentlemen’	158

NUTQIY TEJAMKORLIKNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

Saidov Xayrulla Shavkatovich,

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Najmiyev Mirshod Mizrob o‘gli,

Buxoro davlat universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy tejamkorlikning tilshunoslik sohasida tutgan o‘rni hamda semantik, grammatik, pragmatik va kommunikativ tejamkorlik haqida qisqacha fikr yuritiladi. Bunda nutqiy tejamkorlik – bu so‘z va ifodalarning qisqartirilgan yoki oddiylashtirilgan shakllarda ishlatilishi, ya‘ni nutqda so‘z yoki iboralarning minimal miqdorda ifodalangan ma‘nolar orqali samarali va tejamkor tarzda muloqot qilish jarayoni ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kontekst, ijtimoiy, kommunikatsiya, effektiv, semantik, kommunikativ tejamkorlik, auditoriya, pragmatik, nutqiy.

THE FUNCTION OF SPEECH ECONOMY IN LINGUISTICS

Abstract. This article briefly discusses the role of discourse economy in linguistics and semantic, grammatical, pragmatic, and communicative economy. Discourse economy is the use of words and expressions in abbreviated or simplified forms, that is, the process of communicating effectively and economically through the use of a minimum number of words or expressions in speech.

Keywords: context, social, communication, effective, semantic, communicative economy, audience, pragmatic, discourse.

РОЛЬ РЕЧЕВОЙ ЭКОНОМИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В статье кратко обсуждается роль экономики дискурса в лингвистике, а также семантической, грамматической, прагматической и коммуникативной экономии. В данном контексте экономия дискурса — это использование слов и выражений в сокращенных или упрощенных формах, то есть процесс эффективного и экономичного общения посредством минимального количества слов или выражений в речи.

Ключевые слова: контекст, социальный, коммуникация, эффективная, смысловая, коммуникативная экономика, аудитория, прагматика, дискурс.

Kirish. Nutqiy tejamkorlik — bu so‘zlarni, ifodalarni, barqaror so‘z brikmalarini qisqartirish usuli orqali nutqning samaradorligini oshirish, ya‘ni minimal so‘z ishlatgan holatda maksimal ma‘no berishga harakat qilishdir. Tilshunoslik sohasida nutqiy tejamkorlikning o‘rni katta, chunki u nafaqat tilning samaradorligini oshiradi, balki tilning evolyutsiyasi, ijtimoiy konteksti va kommunikatsiya jarayonlarida ma‘lumotni aytish hamda ma‘lumotni qabul qilishda ham chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu maqolada nutqiy tejamkorlikning tilshunoslikdagi tutgan o‘rni va uning turli sohalaridagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Nutqiy tejamkorlik, degan atamaning o‘zi nima deyilgan vaqtda har kim turli xil tushunadi, bu muloqot jarayonda keraksiz ortiqcha bo‘lgan so‘zlarni yoki ifodalarni kamaytirish va tushurib qoldirish orqali ma‘lumotni tez, aniq va samarali yetkazishdir. Bu hodisa tilshunoslik sohasida "effektiv nutq" sifatida qaraladi. Masalan, ba‘zi hollarda, odamlar biron bir ma‘lumotni uzundan uzoq so‘zlar yordami bilan ifodalayotgan bo‘lsa, boshqa odamlar uni qisqa va aniq qilib aytishlari mumkin. Bunday nutqiy tejamkorlik ko‘p hollarda ijtimoiy va madaniy kontekstlarga mos ravishda rivojlanib boradi.

Nutqiy tejamkorlik — bu insonning nutqida aniq va lo‘nda fikrlarni ifodalash qobiliyatidir. Bu holat, nutqning qisqa va ravon bo‘lishi, asossiz yoki noaniq so‘zlardan qochilishi, shuningdek, muhim va kerakli ma‘lumotlarni to‘g‘ri va samarali tarzda yetkazilishi bilan xarakterlanadi. Nutqiy tejamkorlik, ko‘pincha, ma‘lumotlarni aniq va tushunarli tarzda ifodalashga yordam beradi, bu esa tinglovchilarga yoki o‘quvchilarga to‘g‘ri xulosa qilishni osonlashtiradi.

Metodlar. Semantik va grammatik tejamkorlik: Tilshunoslikda semantik (ma‘no jihatdan) va grammatik (tuzilish jihatdan) tejamkorlik tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Semantik tejamkorlikda so‘zlar va ifodalar qisqartiriladi, lekin ular ifodalagan ma‘no to‘laligicha saqlanadi. Masalan, “avtomobil” o‘rniga “mashina”,

“Qaysi ishni qilishni xohlaysiz?” → “Ish qilmoqchimisiz?”, “Barchangizga sog'lik tilayman” → “Sog'lik tilayman”, “Men do'stlarim bilan teatrga borishni rejalashtirgan edim” → “Do'stlarim bilan teatrga bormoqchi edim” so'zi ishlatilishi mumkin. Grammatik tejamkorlikda esa grammatik elementlarni qisqartirish yoki nutqda tushirib qolishni ifodalaydi, masalan: “men buni bilaman” o'rniga “bilaman”, “Men kitobni o'qib tugatdim” → “Kitobni o'qidim”, “Mening fikrimcha, bu g'oya juda yaxshi” → “Fikrimcha, bu g'oya yaxshi”, “U men bilan kelganida, biz uzoq suhbatlashdik”, → “U kelgach, suhbatlashdik” kabi qisqartirishlar. Quyidagi parchadan semantik va grammatik tejamkorlik namunalarini ko'rish mumkin:

“...- O'sha o'qni o'qdonimga solib qo'y! – dedi sarkarda.

Ehtiyot bo'ling, qo'l bilan ushlamang, – Shohmurod yonidan latta chiqarib, o'qning belidan bo'ladi. ...[11]”.

Bu parchada birinchi gapda aslida “sen o'sha o'qni mening o'qdonimga solib qo'y!”, bo'lishi kerak va sen, mening so'zlari tushib qolgan. Bu semantic tejamkorlikka misol bo'la oladi. Ikkinchi gapda ham semantik tejamkorlik mavjud hamda grammatik tejamkorlik ham. Bunda “ingiz” tushib qolgan, “qo'lingiz bilan ushlamang” shaklida bo'lishi kerak. Quyidagi parchada ham semantik tejamkorlik namunalarini ko'rish mumkin:

“...- Agar inimiz Bobur mirzoni chaqirtirish imkonsiz bo'lsa, men bilan oyimga ruxsat bering, biz Andijonga boraylik!

Qizim, sen mening eng bebaho gavharlarimdansen. Bu xatarli asnoda seni qanotim ostidan chiqar magaymen! – Undoq bo'lsa, menga ruxsat bering, hazratim! – dedi Qutlug' Nigor xonim.[12]”.

Quyidagi parchaning birinchi gapida “...- Agar bizning inimiz Bobur mirzoni chaqirtirish imkonsiz bo'lsa, men bilan oyimga ruxsat bering, biz Andijonga boraylik!” bo'lishi kerak ya'ni biz so'zi semantik jihatdan ortiqcha deb ko'rilgan va tushirib qoldirilgan. Ikkinchi misolda esa mening va siz so'zi tushirib qoldirilgan, aslida bunday shaklda bo'lishi kerak: – Qizim, sen mening eng bebaho gavharlarimdansen. Bu xatarli asnoda seni mening qanotim ostidan chiqar magaymen! – Undoq bo'lsa siz menga ruxsat bering, hazratim! – dedi Qutlug' Nigor xonim”.

Grammatik va semantik tejamkorlikning asosiy maqsadi — ifodaning samaradorligini oshirish, ortiqcha so'zlar va ifodalar yordamida fikrni chalkashtirmaslikdir. Bu tamoyillar tilning samarali va aniq ishlatilishini ta'minlab, maqsadli auditoriyaga tez va to'g'ri ma'lumot etkazish imkonini yaratadi. Ularning birgalikda ishlatilishi kommunikativ jarayonni yanada samarali qiladi va tilni soddalashtirib, tushunishni osonlashtiradi.

Semantik tejamkorlik — bu ma'lumot yoki fikrlarni ifodalashda so'zlarning aniq va to'g'ri tanlanishi, keraksiz yoki noto'g'ri ma'nolarni oldini olish va ma'lum bir mazmunni eng qisqa va samarali tarzda yetkazishdir. Bu usul orqali so'zlar va iboralar ma'nosini to'liq, lekin ortiqcha tafsilotlar yoki murakkabliklar qo'shmasdan, aniq ifodalashga erishiladi. Semantik tejamkorlik, ma'lum bir fikr yoki tushunchani noaniqliksiz, oson anglash mumkin bo'lishini ta'minlaydi.

Grammatik tejamkorlik — bu nutqda yoki matnda grammatikaning minimal, lekin to'g'ri ishlatilishi, ya'ni ortiqcha grammatik tuzilmalar yoki murakkab jumalardan qochishdir. Bu usulda, fikr yoki ma'lumotni aniq va lo'nda tarzda ifodalash uchun kerakli grammatik qurilishlardan foydalaniladi. Grammatik tejamkorlik, ifodaning soddaligi va ravonligini ta'minlab, o'quvchi yoki tinglovchiga ma'lumotni osonroq anglash imkonini yaratadi. Misol uchun, murakkab iboralardan ko'ra oddiy va to'g'ri grammatika qo'llanilishi kerak bo'ladi.

Kommunikativ tejamkorlik — bu muloqotda ma'lumotni samarali va aniq tarzda yetkazish uchun kerakli vositalardan foydalanish, ortiqcha so'zlardan, takrorlanishlardan yoki noaniq iboralardan qochishdir. Bu turdagi tejamkorlik, nutqning aniq, tushunarli va samarali bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Kommunikativ tejamkorlikda, muhim ma'lumotlarni to'g'ri va qisqa ifodalashga e'tibor beriladi, shuningdek, muloqotdagi har bir ishtirokchining ehtiyojlari va xabarnomalarni tushunishi uchun eng zaruriy elementlar taqdim etiladi. Bu, ma'lumotlarni auditoriyaga tez va to'g'ri yetkazishda yordam beradi

Natijalar va munozara. Kommunikativ tejamkorlik: Nutqiy tejamkorlik, shuningdek, kommunikatsiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tejamkor nutq, odatda, auditoriyani charchatmaydi, zeriktirmaydi va ma'lumotni tez yetkazish yoki qabul qilishni imkonini yaratib beradi. Tilshunoslar nutqiy tejamkorlikni kommunikativ jarayonni tahlil qilishda asosiy element sifatida ko'rib chiqadilar, chunki u so'zlashuvchilarning tilni qanday qisqartirish va soddalashtirib ifodalashlarini o'rganishga yordam beradi.

Tilning evolyutsiyasi va qisqarish: Til rivojlanib borgan sayin unda o'zgarishlar sodir bo'ladi. Nutqiy tejamkorlik tilning rivojlanishi va evolyutsiyasiga ham ta'sir qiladi. Tarixan so'zlar va iboralar qisqarib boradi chunki odamlar muloqotda ko'proq samaradorlikka erishishni xohlaydilar. Masalan, ingliz tilida "television" o'rniga "TV", atamasi ishlatilishi an'anaga aylangan. Bunday qisqartirishlar nafaqat tilni osonlashtiradi, balki uning samaradorligini oshiradi.

Tilning evolyutsiyasi va qisqartirish jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro tilning rivojlanishi va o'zgarishi jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Tilning evolyutsiyasi — bu tilning tarixiy o'zgarishi, undagi grammatika, leksika, fonetika va boshqa strukturalarning vaqt o'tishi bilan rivojlanishi va o'zgarishidir. Bu jarayon, ayniqsa, tilning jamiyatdagi ehtiyojlar va madaniyatga mos ravishda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, tilning fonetik tuzilishi soddalashishi, yangi so'zlar paydo bo'lishi yoki eski so'zlarning yo'qolishi mumkin. Tilning evolyutsiyasi odatda uzoq vaqt davomida amalga oshadi va bunday o'zgarishlar tabiiy ravishda sodir bo'ladi.

Qisqartish (abbreviatsiya) esa, tilning evolyutsiyasi jarayonida tez-tez uchraydigan fenomenlardan biridir. Bu, odatda, uzun va murakkab so'zlarni yoki iboralarni qisqa va oson ishlatiladigan shakllarga aylantirishni anglatadi. Masalan, "Internet" o'rniga "I.T." (Information Technology), yoki "doktor" o'rniga "Dr." kabi qisqartmalar ishlatiladi. Qisqartishlar odatda tilning samaradorligini oshirish va kommunikatsiyaning tezligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qisqartmalar, shuningdek, yangi texnologiyalar va jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashgan holda rivojlanadi.

Tilning evolyutsiyasi va qisqartish o'rtasidagi bog'liqlik shundaki, qisqartmalar tilning rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan va vaqt o'tishi bilan keng tarqalgan hodisalardir. Ular tilning samaradorligi, tezligi va soddalashuvi uchun zarur bo'lishi mumkin, shuningdek, yangi texnologiyalar yoki madaniy o'zgarishlarga moslashuvni ta'minlaydi.

Pragmatik asoslar: Nutqiy tejamkorlik ko'pincha pragmatik ehtiyojlarga javob beradi. So'zlashuvchilar ba'zi ma'lumotlarni faqat kontekst orqali tushunadilar, shuning uchun ba'zi elementlar chiqarib tashlanadi yoki qisqartiriladi va bunda ham nutqiy tejamkorlikka intilish yaqqol sezilib turadi. Misol uchun, "Men buni qilishim mumkin" o'rniga, "Qilishim mumkin", "Men film ko'rishni yoqtiraman" o'rniga "film ko'rishni yoqtiraman" deyishning o'zi kifoya bo'lishi mumkin. Bunda kontekst orqali ma'no to'liq tushuniladi va ba'zi so'zlar tushirib qoldiriladi.

Pragmatikada tejamkorlik, nutqda imkon qadar kam so'z bilan ko'proq ma'no va samarali muloqot qilishga qaratilgan strategiyadir. Bu tushuncha, asosan, muloqotda kerakli ma'lumotni berishda ortiqcha so'zlardan yoki ifodalardan qochish, faqat zarur va maqsadga muvofiq ma'lumotni taqdim etishga e'tibor qaratadi. Tejamkorlikning maqsadi, muloqotning samarali va aniq bo'lishini ta'minlashdir. Tejamkorlik pragmatikada quyidagi jihatlarda o'z ifodasini topadi:

1. Maxsus maqsadga yo'naltirilgan nutq: Nutq faqat zaruriy ma'lumotni o'z ichiga oladi va boshqa noaniq yoki ortiqcha so'zlardan qochadi. Bu orqali vaqt va energiya tejab, samarali kommunikatsiya amalga oshiriladi.

2. Ehtiyojga qarab qisqartirish: Fikrlar yoki g'oyalar minimal, ammo aniq va to'liq tarzda ifodalanadi. Ko'pincha, bu ham so'z va gaplarning qisqargan shaklida bo'ladi, lekin ma'no to'liq qabul qilinadi.

3. Kontekstual qarorlar: Tejamkorlikni amalga oshirishda kontekstning ahamiyati katta. Har bir vaziyatga qarab, muloqot qilishning eng samarali va qisqa yo'li tanlanadi. Masalan, biz do'stlar bilan suhbatda ko'proq bevosita va qisqa ifodalar ishlatishimiz mumkin, lekin rasmiy muhitda ko'proq aniq va keng ma'lumot berishimiz kerak bo'lishi mumkin.

4. Pragmatik maxsus talablarga rioya qilish: Nutqdagi tejamkorlikni bajarishda har bir nutqiy vaziyatning talablariga mos ravishda maksimal samaradorlikka erishish uchun ko'plab omillar (suhbatdoshning bilim darajasi, vaqt cheklovi, muloqotning maqsadi) hisobga olinadi.

Pragmatikada tejamkorlik, natijada, nutqni yanada aniqroq, samarasiz, va samarali qilishni ta'minlaydi.

Nutqiy tejamkorlik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, har bir madaniyatda o'ziga xosdir. Ba'zi madaniyatlarda nutqni qisqartirish va soddalash keng tarqalgan, boshqa madaniyatlarda esa, to'liq va batafsil ifoda ishlatish afzal ko'riladi. Bu turli ijtimoiy rollar, muloqotning rasmiy yoki norasmiyligi, va boshqa omillarga bog'liq. Masalan: Yapon tilida muloqotda rasmiylik va hurmatning yuqori darajada bo'lishi sababli, nutq ko'pincha uzun va murakkab bo'ladi. Boshqa tomondan, ingliz va o'zbek tillarda ko'pincha qisqa va aniq nutq ishlatiladi, bu esa samarali va tejamkor kommunikatsiya uchun qulayroq bo'ladi.

Xulosa. Til shunday mo'jizakorki, vaqt o'tgani sayin hamma narsa (jamiyat, insoniyat, yashash tarzi, madaniyat, texnologiya) o'zgarganidek til ham xuddi shunday o'zgarishlar bilan yuzlashadi. Misol tariqasida tilda yangi so'zlarni paydo bo'lishi, boshqa tillardan so'zlar kirib kelishini ko'p hollarda ko'rinishi mumkin. Nutqiy tejamkorlik tilshunoslik sohasida muhim tushuncha bo'lib, u muloqotda samarali va aniq fikrlarni ifodalashning asosiy usulidir. Nutqiy tejamkorlik, o'z navbatida, so'zlar va iboralarni eng qisqa va lo'nda tarzda ishlatishni ta'minlashga qaratilgan. Tilshunoslikda uning o'rnini va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tilning samarali ishlatilishi: Nutqiy tejamkorlik, tilni samarali va aniq ishlatishga imkon beradi. O'zaro muloqotda ortiqcha so'zlar yoki murakkab tuzilmalar ishlatilmasdan, aniq ma'lumotlar va fikrlar yetkaziladi. Bu, o'z navbatida, kommunikatsiyaning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

2. Fikrni aniq ifodalash: Nutqiy tejamkorlik, tilshunoslikda fikr va tushunchalarni aniq va lo'nda tarzda ifodalashni o'rgatadi. Bu tilning ravon va tushunarli bo'lishini ta'minlab, auditoriya yoki tinglovchining fikrni tez va oson qabul qilishini osonlashtiradi.

3. Grammatik va semantik soddalik: Nutqiy tejamkorlik tilshunoslikda grammatika va semantikadan foydalanishni minimalizatsiya qilishni o'rgatadi. Bu, so'zlar va iboralarning mazmunini eng soddalashgan shaklda ifodalashga imkon yaratadi, bu esa muloqotda tushunmovchiliklarni kamaytiradi.

4. Madaniy va kommunikativ o'zgarishlarga moslashish: Tilshunoslikda nutqiy tejamkorlik, jamiyatdagi o'zgarishlar va yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashishning bir shakli sifatida qaraladi. Masalan, yangi texnologiyalar va qisqa, aniq kommunikatsiya uslublari nutqiy tejamkorlikni taqozo etadi.

5. Lingvistik iqtisod: Nutqiy tejamkorlik tilshunoslikda "lingvistik iqtisod" prinsipiga asoslanadi, ya'ni muloqotda keraksiz ma'lumotlarni aytib o'tmasdan, muhim va zarur ma'lumotlarni to'g'ri va qisqa shaklda yetkazishga qaratilgan. Bu tilni samarali ishlatish va ortiqcha so'zlardan qochish tamoyilidir.

Shunday qilib, nutqiy tejamkorlik tilshunoslikda tilni o'zaro muloqotda samarali, aniq va soddalashtirilgan shaklda ishlatishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, kommunikatsiyaning ravonligini ta'minlashga, hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishlariga yordam beradi. Nutqiy tejamkorlik ham xuddi shunday o'zgarishlar turiga kiradi va tilshunoslikda kommunikativ samaradorlikni oshirish, tushunish jarayonini osonlashtirishda, tilning evolyutsiyasini o'rganish, va ijtimoiy kontekstlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. So'zlarning qisqarishi va ifodalar bilan tejamkorlik tilning rivojlanishiga ta'sir qiladi va bu jarayon turli madaniyatlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda nutqiy tejamkorlikni o'rganish, kommunikatsiya jarayonlarini yanada samarali tushunishga imkon beradi, bu esa tilni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR:

1. Crystal, David. *Language and the Internet*. Cambridge University Press, 2001.
2. Yule, George. *Pragmatics*. Oxford University Press, 1996.
3. Searle, John. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press, 1969.
4. Allan, Keith, and Jaszczolt, Kasia M., eds. *The Cambridge Handbook of Pragmatics*. Cambridge University Press, 2012.
5. Bernstein, Basil. *Discourse Analysis: An Introduction*. Routledge, 2000.
6. Kuhn, Thomas S. *The Structure of Scientific Revolutions*. University of Chicago Press, 1962.
7. Mirmuhsin Xo'jand qal'asi. – Toshkent: Oltin qalam nashriyoti, 2024.
8. Qodirov Pirimqul Yulduzli tunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.